

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/27.09.2024.Ped.82.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XUSNUDDINOVA ZULAYXO XAMIDULLAYEVNA

**KO‘ZI OJIZ BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION-
PEDAGOGIK ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KLASTER
MEXANIZMLARI**

13.00.03 –Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna

Ко'зи ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini
oshirishning klaster mexanizmlari5

Хуснуддинова Зулайхо Хамидуллаевна

Кластерные механизмы повышения эффективности коррекционно-
педагогической работы с незрячими детьми21

Khusnutdinova Zulaykho Hamidullayevna

Cluster mechanisms for enhancing the efficiency of correctional and pedagogical
work with blind children 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/27.09.2024.Ped.82.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XUSNUDDINOVA ZULAYXO XAMIDULLAYEVNA

**KO‘ZI OJIZ BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION-
PEDAGOGIK ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KLASTER
MEXANIZMLARI**

13.00.03 –Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
PhD.03/27.09.2024.Ped.82.05 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi
(www.cspi.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Feruzaxon Usmanovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muxabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xoliqov Azamat Qaxramonovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.82.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712- 45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ da tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

I.D.Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo bo'yicha alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiy hayotga tayyorlashning korreksion-pedagogik tizimini takomillashtirishning hamkorlikka asoslangan yondashuvlari joriy etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasida imkoniyati cheklangan bolalar uchun to'siqsiz muhitni yaratish vazifalari belgilab berilgan. Bunda uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan korreksion yondashuvlarni tizimli olib borish hamda bu jarayonda subyektlar faoliyatini maqsadga yo'naltirish muhim sanaladi. Ko'rishida muammolari bo'lgan bolalarni kompleks rivojlantirish bo'yicha korreksion mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishda individual ta'lim tendensiyalari hamda texnologiyalari dolzarblilik kasb etmoqda.

Dunyoda yetakchi oliy ta'lim muassasalari va tadqiqot markazlarida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirish, intellektual salohiyatini tezkor diagnostika qilish, ijtimoiy moslashuvini erta va samarali ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Moslashtirilgan zamonaviy ta'lim muhiti, tibbiy yordam va reabilitatsiya xizmatlari, ijtimoiy ishchilar va mutaxassislar orqali oilalarga yordam berish, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan to'g'ri tushuncha va munosabatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish taqozo etilmoqda. Bu esa ta'lim muassasalarida olib boriluvchi korreksion mashg'ulotlarning integratsiyasini kompensator shaklda ta'minlashsiz hamda oilalar, tibbiy soha mutaxassislari va mahalla mutasaddilari ishtirokisiz amalga oshmaydi. Buning uchun ta'lim subyektlari faoliyati mazmuniga korreksion-pedagogik tamoyillar va yondashuvlarni singdirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarda tayanch va fanlarga oid kompetensiyalarni tizimli shakllantirishga mo'ljallangan pedagogik strategiyalarni takomillashtirishga ustuvorlik berilmoqda. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish va nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tish" bo'yicha vazifalar belgilangan. Shuningdek, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy, teri tuyush, mo'ljal olish va predmetlarni tasavvur qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni¹, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"², 2022-yil 18-apreldagi PQ-209-son "Ko'zi ojiz va zaif

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni (<https://lex.uz/ru/docs/-5841063>)

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori (<https://lex.uz/docs/-5044711>)

ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi³ qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi⁴ Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi va tarbiyasi hamda ijtimoiylashuvi bo'yicha tadqiqot ishlari M.Y.Ayupova, Z.M.Ahmedova, N.Dadaxo'jayeva, U.Y.Fayziyeva, Z.N.Mamarajabova, M.S.Maxmudova, L.R.Muminova, L.Sh.Nurmuxamedova, F.U.Qodirova, M.A.Sattorova, I.Q.Sayfullayeva, M.F.Xakimova, M.P.Xamidova, L.R.Xayitov, D.B.Yakubjanova, G'.B.Shaumarov tomonidan olib borilgan. Bu izlanishlar natijasida amaliyotga korreksion-pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga oid tavsiyalar joriy etilgan. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos rivojlanishi bilan bog'liq metodik, psixologik, pedagogik masalalar N.Abidova, G.Berdiev, Z.Djalolova, D.Musayev, D.Sultonova, A.Q.Xolliqov, Sh.Xalilova tomonidan olib borilgan izlanishlarida tadqiq etilgan. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari G.I.Muxamedov, U.N.Xodjamqulovlarning izlanishlari, shuningdek, metodik aspektlari B.S.Axmadaliyev, Sh.I.Botirova, R.X.Hasanov, Sh.Z.Matupayeva, S.A.Toshtemirova, J.E.Usarov, X.Sh.Yunusova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari V.M.Akimushkin, A.G.Litvak, L.V.Mardaxayev, I.S.Morgulisa, I.P.Pavlov, I.M.Sechenov, L.I.Solnseva, L.S.Vigotskiy, S.Xorosh, E.Shlaylar tomonidan ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ular bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning tashkiliy-metodik va pedagogik-psixologik aspektlari tahlil etilgan. A.M.Kamenskiy O.E.Gavrilova, F.T.Shageyeva, L.L.Nikitina T.V.Fadinalar tomonidan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ilmiy-nazariy asoslangan.

Xorijda K.Becker, W.Belmer, G.P.Boush, N.Felden, Heather Mason, J.John, N.Suhrweirr, S.Urwin, L.Zeuthen kabi olimlar tomonidan tiflopedagogik va

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 18-apreldagi PQ-209-son "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (<https://lex.uz/ru/docs/-5966089>)

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (<https://lex.uz/ru/docs/-5679836>)

tiflopsixologik yondashuvlar tadqiq etilgan bo'lib, ularning natijasida korreksion-pedagogik ishlar samaradorligini oshiruvchi tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ilmiy ishlar rejasining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2022-2024 yy.).

Tadqiqot maqsadi ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning pedagogik-psixologik jihatlarini aniqlash;

ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster modelini takomillashtirish;

korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlarini takomillashtirish;

korreksion-pedagogik ish samaradorligini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirish jarayoni deb belgilanib, tajribasinov ishlariga Andijon, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahridagi "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarining jami 114 nafar ko'rishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilar jalb etildi.

Tadqiqot predmetini ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning mazmuni, shakl, vosita, usul va mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ilmiy manbalar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish, kuzatuv, so'rovnomalar, kuzatuv, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning pedagogik imkoniyatlari o'quvchilarda vizual yetishmovchilikni kompensatsiya qiluvchi polisensor ta'sirni prognostik baholash, predmet tasavvurini yaxlit shakllantirish muhitida hissiy sezgirlik impulsiga ko'ra maqsadli optimallashtirish asosida aniqlashtirilgan;

ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish modeli diagnostika va korreksiya ishlarining algoritmik uzviyligini individual yo'naltirilgan ergonomik jarayondagi subyektlar faolligini oshirish imkoniyatlarining dinamik salohiyatini hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlari ko'zi ojiz bola rivojlanish xaritasida belgilangan sensomotor mezonlarni

konstruktiv-didaktik mashg'ulotlarda davriy monitoring natijalariga ko'ra singdirish hamda oila, ta'lim va tibbiyot funksiyalariga adaptivlashtirish asosida takomillashtirilgan;

korreksion-pedagogik ish samaradorligini baholash mezonlari ko'zi o'jiz bolalarda ijtimoiylashuv motivatsiyasini intensiv rivojlantiruvchi o'quv-korreksiya mashqlarini kiritish hamda imitatsion muhitdagi ratsional adaptivlikni differensial ravishda transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida korreksion-pedagogik ishlarning samaradorligini oshirishda subyektlar faoliyatidan foydalanishning didaktik ta'minotini takomillashtirishga mo'ljallangan "Hamkorlikka asoslangan korreksion ta'sir modeli" nomli seminar dasturi ishlab chiqilgan;

ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlariga asoslangan Nurli maskan o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Texnologiya" darsligi nashr qilingan;

korreksion-pedagogik mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga mutaxassislarni tayyorlashga mo'ljallangan "Tiflopsixologiya" nomli darslik, "Tiflopedagogika" va "Mo'ljal olish va harakatlanish" nomli o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilgan va foydalanishga joriy etilgan;

ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nuqsonlarini bartaraf etish va ularning ta'lim olishini korreksion-pedagogik jihatdan modellashtirishda oila, ta'lim muassasasi, tibbiyot sohasi hamkorligini ta'minlashga qaratilgan "Inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining ish faoliyatini tashkil etish" (maxsus pedagoglar, psixologlar, fan o'qituvchilari hamda maktab rahbariyati uchun mo'ljallangan) nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, tajriba-sinovga jalb etilgan maxsus ta'lim muassasalari soni talab darajasida ekanligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuni, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko'zi o'jiz o'quvchilarda vizual yetishmovchilik bilan bog'liq aqliy, nutqiy, sensomotorik muammolarni pedagogik tashxis qilish va korreksiyalashda ta'lim subyektlari faoliyatini klaster mexanizmlari asosida integratsiyasiga doir xorijiy, milliy nazariy qarashlar, tajribalarning tahlil etilganligi, korreksion mashg'ulotlarning didaktik tuzilmasi va metodik ta'minoti individual, differensial yondashuvlarga asoslangan holda adaptivlashtirilganligi, o'quvchilarni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar va ularning kompensator muhitga mos variatsiyalarining amaliy-didaktik kontekstlarda qo'llanilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati amaliyotga joriy etilgan korreksion-pedagogik ish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan klaster mexanizmlaridan soha yo'nalishiga doir tadqiqotlarda, maqsadli ta'lim dasturlari, loyihalarda,

maktabgacha va maktab ta'limi tizimida faoliyat yurituvchi rahbar va pedagoglarning malakasini oshirish kurslari modullari mazmunini boyitishda, inklyuziv va ixtisoslashtirilgan ta'lim muhitida ko'zi ojiz o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga bag'ishlangan ma'ruzalar mazmunini to'ldirishda nazariy-metodik, ota-onalar hamda ijtimoiy institutlar mutasaddilari uchun konsultativ manba sifatida foydalanilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlarini tadqiq qilish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning pedagogik imkoniyatlari o'quvchilarda vizual yetishmovchilikni kompensatsiya qiluvchi polisensor ta'sirni prognostik baholash, predmet tasavvurini yaxlit shakllantirish muhitida hissiy sezgirlik impulsiga ko'ra maqsadli optimallashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar "Texnologiya" darsligi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligining 2022-yil 21-iyundagi 166-sonli buyrug'i). Natijada korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishda o'qituvchi-tiflopedagog, ota-onalar va ko'zi ojiz bolalar faoliyatini integrativ tashkil etishning didaktik ta'minotiga erishilgan;

ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish modeli diagnostika va korreksiya ishlarining algoritmik uzviyligini individual yo'naltirilgan ergonomik jarayondagi subyektlar faolligini oshirish imkoniyatlarining dinamik salohiyatini hisobga olishga doir tavsiyalar "Tiflopsixologiya" darsligi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan 194-543-raqamli guvohnoma). Natijada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni kompleks rivojlantirishning psixologik yondashuvlarning maqsadli yo'lga qo'yilishiga sharoit yaratilgan;

korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlari ko'zi ojiz bola rivojlanish xaritasida belgilangan sensomotor mezonlarni konstruktiv-didaktik mashg'ulotlarda davriy monitoring natijalariga ko'ra singdirish hamda oila, ta'lim va tibbiyot funksiyalariga adaptivlashtirishga oid takliflari "Mo'ljal olish va harakatlanish" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrdagi 438-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan 438-364-raqamli guvohnoma). Natijada ko'zi ojiz bolalarni makonda mo'ljal olishga o'rgatish orqali ularning ijtimoiylashuvini ta'minlashning metodik yo'llarining targ'ib etilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy matni 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan; tadqiqot ishining respublikaning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xosligi, ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari ta'lim mazmuni, ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-kompensatsion ishni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik va metodik aspektlariga oid olib borilgan milliy va xorijiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Ko'rishning inson rivojlanishidagi, olamni anglashdagi, ma'lumotlarning to'liq va yaxlit qabul qilinishidagi muhim roli bo'yicha qator olimlarning izlanishlari, pedagogik-psixologik qarashlari keltirilgan. Jumladan, S.L.Rubinshteyn ko'rish sezgisini boshqa sezgilar bilan solishtirgan holda eng kuchli va anig'idir deb ta'kidlasa, I.M.Sechenov ko'rish analizatori yordamida turli xil predmetlarning sakkiz toifadagi: rang, shakl, hajm, uzoqlik, yo'nalish, siluet, xotirjamlik va harakat kabi muhim xususiyatlari farqlanadi deb hisoblaydi. Ushbu analizator faoliyati buzilsa, yoki o'z faoliyatini to'laqonli bajarmasa, bolalarning aqliy, ruxiy, psixologik rivojlanishida kamchiliklar, o'zgarishlar kuzatiladi. Natijada, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlariga nisbatan har tomonlama orqada qoladi. Agar bu bolalar o'z vaqtida maxsus ta'limga jalb etilmasa, ular bir umr o'zgaralar yordamiga muhtoj bo'lib, boqimondalikda yashashga moslashib qoladilar. Shu sababli mazkur toifa bolalarning ijtimoiylashuv motivatsiyasini oshirishda ularning pedagogik-psixologik xususiyatlari inobatga olingan ta'lim muhitini yaratish muhimdir.

Asosan, o'quvchilarda **vizual yetishmovchilikni kompensatsiya** qiluvchi polisensor ta'sirga tayaniladi. Polisensor ta'sir korreksion mashg'ulotlar integratsiyasi jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, predmet tasavvurini yaxlit shakllantirish muhitida o'quvchilar hissiy sezgirlikka o'rgatiladi. **Bu sezgirlik bolaning kompleks rivojlanishga impuls beradi.** Tadqiqot davomida aynan ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning **hissiy sezgirligini** kuchaytiruvchi mexanizmlarni optimallashtirishga oid manbalar tahlil qilindi. Natijada mazkur toifa bolalar ta'limi tizimi hamda o'ziga xosligi xususida ma'lumotlar umumlashtirildi. Mamlakatimizda qashshoqlikning oldini olish, band bo'lmagan yoshlarni kamaytirish maqsadida barcha turdagi imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus-korreksion ta'limi tizimli olib boriladi. Respublikamizda ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan 17 ta “Nurli maskan” lar tashkil etilgan bo'lib, ularda

3500 dan ortiq o'quvchilarga ta'lim oladilar. Barcha ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalaridagi kabi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarida ham o'quvchilarda mavjud bo'lgan birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan metodik ishlar tashkil etiladi. O'quvchilarning ko'rish qobiliyatini rivojlantirish, tiklash va umuman ko'rmagan holatda atrof olamga moslashish va harakatlanishga o'rgatadigan metodik ishlar asosan, korreksion mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Nurli maskanlarda o'quvchilar ham yashab, ham ta'lim oladilar. Bu tartib ularda o'z-o'ziga xizmat, o'zini namoyon qilish, atrofdagilar bilan muloqotga kirishish kabi ko'nikmalarni talab etadi. Sog'lom bolalar oilalarida yashagan holda ta'lim olganligi sababli, o'z-o'ziga xizmat, o'zini namoyon etish va boshqa ijtimoiy ko'nikmalarni kattalarga taqlid qilish asosida va ularning ko'magida erta bolalikdan egallaydilar. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar esa, bu ko'nikmalarni pedagoglar, tarbiyachilar, korreksion fan o'qituvchilari tomonidan berilgan bilim, ko'nikma va malakalar asosida egallaydilar. Mazkur bolalar maktabda fan asoslarini o'rganish bilan bir qatorda korreksion 7 turdagi mashg'ulotlarga jalb etiladilar. 1)“Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish” mashg'uloti bolalarni mustaqil hayotga tayyorlaydi; o'ziga o'zi xizmatni o'rgatadi, kasb-hunarga yo'naltiradi; 2)“Predmet tasavvurini shakllantirish va ko'ruv idrokini rivojlantirish” mashg'ulotida o'quvchilar kundalik hayotda zarur bo'lgan predmetlar bilan tanishish orqali, fanlar uchun zarur bo'lgan nutqiy zaxirani egallashga jalb etiladilar; 3)“Mo'ljal olish va harakatlanish” mashg'uloti o'quvchilarni o'z tanasida, tanasiga nisbatan, mikro va makro fazoda mo'ljal olish, ochiq hamda yopiq fazoda xavfsiz harakatlanishga shuningdek, o'zini namoyon etishga tayyorlaydi; 4)“Teri tuyish va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish” mashg'uloti o'quvchilarni atrof-olamdagi narsalarni ushlab his qilish orqali idrok qilishga o'rgatadi; 5)“Logopediya” o'quvchilardagi og'zaki va yozma nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda xizmat qiladi. **Korreksion mashg'ulotlarning har biri o'z maqsad va vazifalari ega. Shu bilan birga vizual yetishmovchilikni kompensatsiya qilish ham korreksion mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Bu esa, korreksion mashg'ulotlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Mazkur maqsad va vazifalar to'liq bajarilsa, o'quvchilar fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar, vizual yetishmovchilikni kompensatsiya qilish orqali esa, mustaqil hayot uchun zarur lug'at boyligiga, harakatlanish ko'nikmalariga ega bo'lib, pirovardda keyingi ta'limga jalb etiladilar, muayyan kasb egallashga tayyor bo'ladilar.**


Afsuski, dastlabki kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, bitiruvchi-o'quvchilarning 27-30%i maqsadli kvota asosida oliy ta'limga, 12%i hunarmandchilikka jalb etilgan. 60% dan ziyod yoshlar oila qarmog'ida, o'zgalar qarmog'ida, ishsiz yashamoqdalar. Aksariyati ijtimoiylashmaganligi sababli, xususan, ayollar, 30-32 yoshigacha oila qurmagan. Mazkur muammolar ijtimoiy-pedagogik-siyosiy tavsifga ega bo'lib, maqsadli tadqiqotlarni taqozo etadi. Shuning uchun tadqiqotimizda aniqlangan muammolarning yechimi sifatida korreksion mashg'ulotlar mazmunini va tashkil etilishini tahlil qilish, metodik takomillashtirish, subyektlar faoliyatini integratsiyalash kabi masalalarni o'rganish va bular bo'yicha tavsifalar ishlab chiqish vazifalari tanlab olindi.

Korreksion mashg'ulotlar o'quvchilarda nutqiy, predmet tasavvuri, fazoda mo'ljal olish, atrof-olamdagi predmetlarni his etish va idrok qilish, ijtimoiylashish ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu jarayonda **hissiy sezgirlik impulsi** muhim rol o'ynaydi, chunki u o'quvchining tashqi muhitdan keladigan signallarga emosional va tezkor javob berish qobiliyatini rivojlantiradi. Bolada **hissiy sezgirlik impulsi** va predmet tasavvuri, asosida nutq shakllanadi, nutq shakllanganligi evaziga fanlar samarali o'zlashtiriladi, mo'ljal olish ko'nikmalari yordamida makonda o'zini namoyon etish imkoniyati ortadi. **Hissiy sezgirlik impulsi** korreksion mashg'ulotlarning samaradorligini oshirib, bolaning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga yordam beradi.

Demak, 7 turdagi korreksion mashg'ulotlar o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi maqsad va vazifalarni ko'zlashi lozim. Ya'ni ularni rejalashtirishda pedagoglarning integrativ faoliyati hamda oilalarning hamkorligi bosh omil sanaladi. Asosan, tayyorlov va 1 sinf o'quvchilarida nutqiy, predmet tasavvuri, ijtimoiylashuv ko'nikmalari intensiv shakllanishiga erishish lozim. Shunda mazmunan murakkablashib boruvchi fanlarning o'quvchilar tomonidan egallanishiga erishiladi. Aks holda fan o'qituvchilari mavzularni ko'p marotaba takrorlashi, ayrim mavzularni qayta tushuntirib berishiga to'g'ri keladi. Bu ishlarni aksariyat pedagoglar amalga oshirmaydilar. Natijada, o'quvchilarning o'zlashtirishida bo'shliq paydo bo'ladi. Aynan korreksion mashg'ulotlar mana shunday bo'shliqlar o'rnini bosishga xizmat qiladi. Shuning uchun korreksion mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini o'rganishga tadqiqotda e'tibor qaratildi. Dastlabki o'rganish ishlari natijalaridan o'quvchilarning nutqiy, mo'ljal olish, predmet tasavvuri, umumiy va mayda motorikalari va o'zini namoyon etish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi ma'lum bo'ldi. Buning sabablari sifatida quyidagilarni keltiramiz: 1) fanlarni o'qitishda korreksion mashg'ulotlar uchun belgilangan minimal talablarga tayanilmayapti; 2) o'qituvchilarning ishlarini tarbiyachilar davom ettirmayapti; 3) o'quv fanlariga oid darslar va korreksion mashg'ulotlarning integratsiyasi yetarli ta'minlanmagan; 4) korreksion mashg'ulotlarda ko'zda tutilgan ko'nikmalarning aksariyati maktabdan tashqari makon va muhitni talab etganligi sababli oilalarning ishtirokiga ehtiyoj kattaligi hamda ota-onalar, mahallalar, tibbiyot birlashmalari mutaxassislari tomonidan ijtimoiy ko'nikmalarni bolalarda shakllantirishning muhimligi anglab yetilmaganligi. Sanab o'tilgan muammolarning metodik hal etilishida ta'lim klasteri muhiti va mexanizmlari zarurligi namoyon bo'ldi. Shuning uchun biz ta'limiy tadqiqotimizda korreksion mashg'ulotlarni samarali rejalashtirish va tashkil etishning klaster mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirishga ustuvorlik berdik. Tadqiqot doirasida klaster mexanizmiga quyidagicha ta'rif berildi: korreksion mashg'ulotlarning maqsad va vazifalarini to'laqonli amalga oshirilishida oila, mahalla, tibbiyot, maktab kabi subyektlar faoliyatini ijtimoiy buyurtma asosida muvofiqlashtiruvchi vositalar, chora-tadbirlarning yaxlit kompleksi. Mazkur kompleks va uning mazmuni ikkinchi bob yuzasidan olib borilgan tajribalarda aks etdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Korreksion-pedagogik ishlar samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlari”** deb nomlangan bo'lib, unda

korreksion mashg'ulotlar samaradorligini oshirish modeli, korreksion-pedagogik jarayonda individual yondashuvdan foydalanishning kompleks imkoniyatlari, shuningdek, klaster subyektlari faoliyati integratsiyasini ta'minlovchi mexanizmlar yoritilgan. Taklif etilgan model korreksion mashg'ulotlar samaradorligini oshirish, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni kompleks rivojlantirish va ijtimoiylashtirishga xizmat qiladi. Model maqsadli, mazmunli, tashkiliy, natijaviy bloklardan iborat. Korreksion mashg'ulotlar samaradorligini oshirishda bir qancha xususiy tamoyillarga tayanildi. Individual, differensial, integratsion yondashuvlar ustuvorligi, korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir va erta pedagogik-psixologik yordam tamoyillaridir. Ushbu tamoyillar ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlash, ijtimoiy va ta'limiy imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan. Klaster modelning diagnostika va korreksiya ishlariga oid tashkiliy blokida korreksion mashg'ulotlarning integrativ rejalashtirilishini algoritmik uzviylikda amalga oshirilishiga mo'ljallangan tavsiyalar bilan boyitildi. Bunda individual yo'naltirilgan hamda o'z tarkibida ergonomik (mashg'ulotlarda o'quvchilar uchun qulay harakatlanish muhiti va makoni bo'lishi, toza havo va yorug'likning yetarli ta'minlanishi va h.) talablarni mujassam etgan subyektlar faoliyatini integratsiyalashga ustuvorlik berildi. Korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlari oila, ta'lim va tibbiyot birlashmalari funksiyalarini manfaatli va maqsadli yo'naltirishni ko'zda tutdi.



1-rasm. Korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster sharoiti

O'quvchilarning yakka rivojlanish xaritasida belgilangan sensomotor mezonlar (muvozanatni saqlash, his etish, eshitish)ni korreksion mashg'ulotlarning turli bosqichlarida inobatga olish bo'yicha pedagoglarga konstruktiv-didaktik (korreksiya va kompensatsiya usullari va vositalarini adaptiv qo'llash, natijalarni dinamik tahlil qilish) ko'rsatmalar taklif etildi.

Korreksion mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi adaptiv didaktik ta'minot, maqsadli hamkorlik, davriy monitoring, oiladagi pedagogik-

psixologik muhit, integrativ rejalashtirish, samarali diagnostika, tayanch marshrut kabi omillar aniqlandi. Ular o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi va umumiy ta'lim tizimining sifatini yaxshilaydi. Korreksion mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishda mazmunli, metodik, diagnostik komponentlar tanlab olindi. Mazmunli komponentda dasturlar tahlil etildi hamda integrativ mavzularni kiritish xususida takliflar berildi. Metodik komponentda dars va mashg'ulotlarning mazmuni va olib borilishi tahlil etilgan holda maqsadli modellashtirish, texnologik boyitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Diagnostik komponentda o'qituvchi, tarbiyachi, o'quvchi faoliyatlari mazmuniga davriy diagnostika instrumentlari singdirildi. Masalan, "Bizibord" (matematik, nutqiy, harakat, teri tuyish va h) asosida o'quvchilarni tezkor kompleks o'rganish va ish natijalari asosida rivojlanish rejalarini tuzishda qo'llanildi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limida samaradorlikni o'rganish uchun 7 ta tur korreksion mashg'ulot vazifalarini integratsiyalovchi 3 ta mezon: 1) nutqiy ko'nikmalarning shakllanganligi, 2) predmet tasavvuri va ko'ruv idrokining shakllanganligi; 3) ijtimoiy maishiy ko'nikmalarning shakllanganligi kabilar tanlab olindi. Chunki aynan shu mezonlar o'quvchilarning kompleks rivojlanishini baholash imkoniyatini beradi. Sanab o'tilgan mezonlarda korreksion mashg'ulotlarning samaradorligini o'rganish maqsadida amaliyotga bir qator metodik tavsiyalar joriy etildi. Jumladan, "Bir safda" volontyorlar harakati, "Pedagogik hashar", "Ochiq osmon ostidagi maktab", "Tashrif", "Ijtimoiy flayer" kabi klaster subyektlari faoliyati integratsiyasini taqozo etuvchi mexanizmlar hamda "Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish mazmuni" nomli uslubiy qo'llanma orqali ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kompleks rivojlanishiga ta'sir etuvchi korreksion-metodik ish turlari amaliyotda qo'llanildi. Natijada oilalarda pedagogik-psixologik muhit yaratildi, ota-onalar o'z farzandlari bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar bilan qurollandilar. Korreksion mashg'ulotlar samaradorligini baholashning samarali instrumenti sifatida integrativ diagnostika o'quvchilarning bilimi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini to'liq va aniq baholash imkonini berdi. O'quvchilarning aqliy rivojlanishiga korreksion ta'sirni kuchaytiruvchi va samaradorligini ta'minlovchi fan o'qituvchisi hamda korreksion mashg'ulot pedagoglarining binar darslari tashkil etildi. Bu darslar nazariy va amaliy bilimlar o'rtasidagi bog'lanishni ta'minladi. Bu yondashuv orqali korreksion dars va mashg'ulotlarning integratsiyasi ta'minlandi. "Pedagogik desantura" talabalar klubi yordamida pedagog, psixologlar faoliyatini hamda o'quvchilarning ko'nikmalarini o'rganish ishlari yo'lga qo'yildi. Bu jarayon orqali ta'lim subyektlariga pedagogik va psixologik yordam ko'rsatildi. "Hamkorlikka asoslangan korreksion ta'sir modeli" nomli seminar dasturi va mashg'ulotlari natijasida ko'rishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim, ko'nikma, malaka va ijtimoiy kompetensiyalarini tizimli shakllantirishning korreksion-rivojlantiruvchi usullari hamda vositalarini adaptiv tarzda qo'llash tajribalari targ'ib etildi. Ijtimoiy flayerlar mahallalarda ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ta'lim, ijtimoiy va psixologik yordamni keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qildi. Keltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi metodlar va mexanizmlarning joriy etilishi hamda ularning samaradorligini o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlar biz tomondan taklif etilgan model orqali amaliyotda sinovdan o'tdi.

KORREKSION MASHG'ULOTLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELI

MAQSAD: korreksion mashg'ulotlar samaradorligini oshirish orqali ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni kompleks rivojlantirish va ijtimoiylashtirish.

MAZMUNLI BLOK

TAMOYILLAR:
individual, differensial, integratsion yondashuvlar ustuvorligi; korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir; erta pedagogik-psixologik yordam.

OMILLAR:
adaptiv didaktik ta'minot; maqsadli hamkorlik; davriy monitoring; oiladagi pedagogik-psixologik muhit; integrativ reja; samarali diagnostika; tayanch marshrutlar.

KOMPONENTLAR:
Mazmunli (o'quv reja, dastur, o'quv qo'llanmalar, metodik vositalar), Metodik (metodik faoliyat va ta'minot), Diagnostik (dastlabki, davriy)

TASHKILIY BLOK

TEXNOLOGIYALAR

ART, AKT, innovatsion pedagogik, hamkorlik, shaxsga yo'nalgan, muammoli texnologiyalar

METODLAR

“Popelrieter testi”, “Tugallanmagan rasm”, “Portret”, “Xarita”, “Telefon”, “Do'konda”, His etib o'rgan va nomla “Farqini top”, “Topgan topoloq”

VOSITALAR

Vizual (mnemo sxema, plitalar, stend); Aniqlashtiruvchi (pribor, grifel, hassa, exolakter, tiflometer, tiflometr); Axborot beruvchi (sensorli terminallar, vizual-dinamik tizimlar va radio modullari); Yo'naltiruvchi (ovozli, sensorli hassa, yer to'shamalar).

KLASTER SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI:

OILA

“Bir safda” volontyorlar harakati, suhbat, trening, pedagogik hashar, tashrif

MAKTAB

binar dars, integrativ diagnostika, ustoz shogird, metodik xarita

MAHALLA

“Pedagogik desantura” “Ochiq osmon ostidagi maktab”, ijtimoiy flayerlar, ijtimoiy xarita

KORREKSION MASHG'ULOTLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI

Nutqiy ko'nikmalarning shakllanganligi

Predmet tasavvuri va ko'ruv idrokining

Ijtimoiy maishiy ko'nikmalarning

BAHOLASH KO'RSATKICHLARI

Bajardi

Qisman bajardi

Xato bajardi

Bajarmadi

Natija: predmet tasavvuriga ega, nutqi shakllangan, ijtimoiy jamiyatga moslashgan ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola

NATIJIY BLOK

2-rasm. Korreksion mashg'ulotlar samaradorligini oshirish modeli

Taklif etilgan model natijasida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlarni integrativ tashkil etishning metodik tizimi asoslandi. Ushbu modelning amaliyotga samarali tatbiq etilishiga erishish maqsadida o'qituvchi va tarbiyachilarni uchun "Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar korreksion-ijtimoiy harakat tizimi modellari" nomli seminar dasturi ishlab chiqildi hamda oflayn va onlayn mashg'ulotlar o'tkazildi. Korreksion mashg'ulotlar samaradorligini oshirishda subyektlar faoliyatini natijali mobilizatsiyasi uchun "Texnologiya" darsligi nashr qilindi.

Dissertatsiyaning **"Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlari samaradorligi"** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov mazmuni, bosqichlari va ularning natijalari tahlili keltirilgan. Tajriba-sinov ishlari Andijon, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahridagi "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida 2021-2024 yillar davomida 3 bosqichda olib borildi. Tajriba-sinov ishlariga jami 114 nafar ko'rishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov va 1-sinf o'quvchilar jalb etildi.

